

Davlat dasturi ijrosi nazoratda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi ““Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-22-son Farmoni imzolandi.

Mazkur Farmonga asosan O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan topshiriqlar belgilangan muddatda ijrosi ta‘minlanmoqda.

Transport nazorati inspeksiyasining faoliyatini raqamlashtirish, qog‘ozbozlikni oldini olish maqsadida ichki hujjat qabul qilindi. Unga muvofiq, asosiy faoliyatga oid buyruq va bayonlarni “edo.ijro.uz” elektron hujjat aylanish tizimi orqali kelishish hamda qabul qilish jarayoni yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, tashkilotning asosiy faoliyatga oid qabul qilingan buyruqlarini “E-qaror” elektron tizimi orqali jamoatchilikka e‘lon qilib borish bo‘yicha majburiy tartib o‘rnatildi.

Shu bilan birga, hozirgi kunga qadar Inspeksiya tomonidan qabul qilingan asosiy faoliyatga oid 518 ta buyruq hamda ularga ilova qilinadigan hujjatlar “E-qaror” elektron tizimi orqali jamoatchilikka e‘lon qilib kelinmoqda.

Davlat nazorati funksiyalarini fuqarolarning hayoti, sog‘ligi va xavfsizligini qat‘iy ta‘minlashga yo‘naltirish maqsadida Transport nazorati inspeksiyasi funksiyalari xatlovdan o‘tkazildi hamda ularning ro‘yxati shakllantirildi. Mazkur funksiyalar tahlil qilinib, natijalari asosida hozirgi vaqtda Inspeksiyaning nazorat funksiyalarini fuqarolar hayoti, sog‘ligi va xavfsizligini ta‘minlashga yanada yo‘naltirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ishlari amalga oshirilmoqda.

Transport nazorati inspeksiyasi
Axborot xizmati